



PSIXODIAGNOSTIKA (PSIXOLOGIK TASHXIS)NING ZAMONAVIY USULLARI

Yakubbayeva Farog'at Soxibjonovna

Namangan viloyati Yangiqo'rgon

tumani 63-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy psixologik usullar yordamida diagnostik qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy psixologiya, diagnostika, psixodiagnostika, fakt, kayfiyat, muloqot, optimist, pessimist, erkinlik, ishonch, depressiya, agressiv, xushmuomala,

Ma'lumki psixologiyada insonlar harakterini o'rganishning ko'plab usullari mavjud, zamonaviy psixologiya esa insonning tug'ilgan vaqti, qanday predmetlarni yoqtirishi va nimalarga qiziqishiga qarab uning xarakterini ochib berishga xarakat qiladi. Quyida biz shunday zamonaviy psixologiyaning qiziqarli faktlaridan keltirib o'tamiz.

Bir guruh olimlar insonlarning qaysi faslda, oyda, kunda tug'ilganiga qarab uning xxxarakterini tavsiflashga uriadilar masalan: yoz va kuzda tug'ilgan odamlarning barqaror ko'tarinki kayfiyatga moyil bo'lishini aniqladi. Baxor faslida tug'ilganlar optimist, hayotning yaxshi tomonlarini ko'rishga harakat qiladigan va muloqotga oson kirishuvchan bo'lishadi. Lekin shu bilan birga, ular ko'pincha klinik depressiyadan aziyat chekishar ekan. Yozda tug'ilgan odamlar esa qiyin vaziyatlarda sabr-matонат ko'rsata oladi. Shuningdek, ularning kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi. Kuzda tug'ilganlar depressiyaga kam yo'liqadi, lekin ular qaysar va jizzaki bo'ladi. Qishda tug'ilgan odamlar depressiyadan aziyat chekishi bilan birga, ruhiy kasalliklarga ham moyil bo'ladi, hayotdagi muvaffaqiyatsizliklardan



qattiq qayg'uga tushadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qish faslida tug'ilgan odamlar orasida, ijtimoiy jihatdan yuqori cho'qqilarga erishgan odamlar ham talaygina. Olimlar inson hayotiga uning tarbiyasi va atrofdagi muhit ko'proq ta'sir qilishini ta'kidlashmoqda.

Bundan tashqari bir guruh olimlarning takidlashiga qaraganda inson qaysi rangni yoqtirishiga qarab uning tabiati ham turfa hil ekan. Masalan

– YASHIL RANG

Bu rangni sevuvchilar juda hissiyotli, didli, nozik, tabiatni yaxshi koruvchi, erkinlikni sevuvchi, ishq bobida vafodor va ishonchga loyiq kishilardir.

– QIZIL RANG

Bu rangni sevuvchilar qiziqqon, harakatchan, tezda birqarorga keluvchan, jahlitez, har bir ishga arazlab majoro chiqarishni yaxshi koruvchi kishilardir.

– SARIQ RANG

Bu rangni yoqtirgan odamlar, tushungan, ravshan fikrlidirlar. Ular hayolga beriluvchan melanxolik, vafodor, hasadchi, afsonaga aylanish darajasida sevishta urinuvchan boladilar.

KO`K RANG

Bu rangni yoqtiruvchilar ichki olamdan kora, tashqi gozallikni sevuvchilar boladilar. Ular aqlli xushfel, bir sozli, ishqqa vafodordirlar.

BINAFSHA RANG

Bu rangni yoqtiruvchilar izzattalab, hammadan kuchli bolishni istovchi, mijozi doim galayondan iborat bolgan odamlardir.

OQ RANG



Bu rangni sevuvchilar pokiza, masuma kishilardir. Boshqalarga nisbatan muloyim, sovuqqon hissiyoti esa kamroq boladi.

QORA RANG

Bu rang badbin va nizotalab kishilarning sevgan rangi. Bunday kishilar kam kuladi; hamisha tund bolib yuradi, ishq bobida beqarordirlar.

Yana bir guruh olimlar esa inson qaysi mevani yoqtiri uning ma'lum bir harakter xususiyatlariga bog'liq ekanini ta'kidlashmoqda.

QOVUN sevar insonlarni yo'rig'ingizga yurgizaman deb xomtama bo'lmang. Ko'plab o'tkazilgan tajribalarda ular dovyurak insonlar deb topilgan. Shuningdek ular boshqalarning ta'siriga ham tushib qolishmaydi. Bunday insonlarning fe'l-atvori mustahkam qo'rg'onga o'xshaydi. Qancha harakat qilsangiz ham buni o'zgartira olmaysiz. Qovunni xush ko'ruvchi insonlar saxiy, oliyjanob bo'lib, sayohat qilishni yaxshi ko'radilar.

TARVUZni sevuvchilar kamdan kam o'tgan umrlariga afsuslanadilar. Ular barcha xatolarni o'zlari bilib qiladilar, tez xulosa chiqaradilar va hech qachon afsuslanmaydilar. Bunday insonlar hayotda tavakkalchi insonlardir.

QULUPNAYni yoqtiradiganlar quvnoq, samimiy, xushmuomala, odamlar bilan tez til topishadigan bo'lishadi. Ularni o'ziga xos jihati shuki — bashang va xushbichim kiyinishni yaxshi ko'rishadi. Ular biroz hasadgo'y insonlar toifasiga ham kiradilar. Ba'zida esa hasaddan o't bo'lib yonishlari ham hech gap emas. Bunday insonlar faqat o'z ichki sezgisiga ishonadilar.

ShAFTOLIni sevib iste'mol qiluvchilar doim atrofdagilar diqqat markazida bo'lishadi. Ularning atrofida do'stlari ko'p bo'ladi. Yashirin harakatlarini ko'rmaysiz, hammasi oshkora. Ba'zida ularning hazil va chinini ajratish qiyin. Mag'rur bo'lishlariga qaramay oson kechiruvchidirlar. Ammo nafsoniyatiga tekkanlarga munosib javob



qaytarmay qo'ymaydilar. Ular ideal insonlar toifasiga kiradilar. Sofdil va ishonchli kishilar bo'lishadi.

LIMONni xush ko'ruvchilar ko'proq ko'ngilga quloq soluvchi insonlar bo'lishadi. Juda rahmdil. Boshqalarning o'zi haqidagi tanqidini ko'tara olishmaydi. Bunday insonlar «gunohkorlar albatta jazosini oladi» degan fikrga tayanib ish ko'rishadi. Ular melanxolik xarakterga ega insonlar toifasiga kiradilar. Ammo yaxshi ijodkordirlar.

XURMO mevasini sevuvchilar har qanday sharoitga moslashuvchan, sabr-matонатli, kuchli insonlardir. Ular shoshib ish qilmaydilar, qiyinchiliklardan aslo qo'rqmaydilar. Atrofdagilar bilan tez munosabatga kirishuvchan insonlar sirasiga kiradilar. Umuman olganda ularni ham ideal insonlar deyishimiz mumkin.

GILOSni sevuvchi insonlarning hayoti doim ham bir tekisda kechmaydi. Hayotlari past-balandliklardan iborat. Ularning tasavvuri keng va hamma ishda ishonchli hamkor sanalishadi. Bunday insonlar his tuyg'ularga asir bo'lishni umuman xushlashmaydi. Shuning uchun har doim yaqinlari davrasiga shoshiladilar.

UZUMni yoqtiradigan insonlar yolg'izlikda o'zlarini yaxshi his qilishadi. His-hayajonga tez beriladilar. Muloqotga kirishuvchandirlar. Ko'pincha mashhurlikka erishadilar. Mevalar ichida uzumni yaxshi ko'ruvchilar hayotning har bir kunidan quvonch topishga qodir bo'ladilar. Kutilmagan sovg'alarni yoqtiradilar.

OLMANi sevuvchilar g'ayrioddiy xususiyatlarga ega bo'lishadi. Favqulotta holatlarda ichki sezish qobiliyatlari ishga tushib, yomon hodisalardan himoyalanişadi. O'zlari uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmasliklari mumkin, amma jamoaga yetakchilik qilishda ularga yetadigani yo'q. Juda g'ayratli insonlar toifasiga kiradilar va barcha muammolar yechimini tezda topadilar.

O'RIK mevasini ko'p iste'mol qiluvchilar erkinlikni xush ko'ruvchi, birovdan yaxshilikni ayamaydigan insonlar bo'lishadi. Ularni erkinligiga xalal bergan har qanday



odamga qattiq qarshilik ko'rsatishdan qaytmaydilar. Atrofdagi insonlarni ishontirish xususiyatiga egadirlar. Shuningdek ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lib, she'r, hikoyalar yozishni qoyil qiladilar. Muloqot qilish va do'st orttirishga usta bo'ladilar. Ammo ularning ichki dunyosiga faqat yaqin insonlarigina kira oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Gumanistik psixologiya" I.I. Amanova
2. Ijtimoiy tarmoqlar "@yordamchi psixolog" internet sayti
3. "Qiziqarli psixologiya" M. Ismoilova o'quv qo'llanma